



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Tadjiyev Erkin Muxitdinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

erkintadjiyev1@gmail.com,

ORCID: 0009-0000-1033-2744

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Tadjiyev Erkin Mukhitdinovich

Independent Researcher, Tashkent State University of Economics

erkintadjiyev1@gmail.com,

ORCID: 0009-0000-1033-2744

Annotatsiya

Mazkur maqolada professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritish tizimi holati o'rganildi va amaldagi hisob siyosati, moliyalashtirish manbalari va ichki nazorat tizimining samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida uchta texnikum misolida hisob yuritish amaliyoti solishtirma va tavsifiy tahlil metodlari asosida o'rganildi. Tahlillar natijasida hisob siyosatidagi turfa yondashuvlar, avtomatlashtirish darajasining notengligi hamda normativ hujjatlarning yetarli tatbiq etilmasligi kabi tizimli muammolar aniqlandi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida hisob siyosatini standartlashtirish, avtomatlashtirishni kengaytirish va ichki nazorat mexanizmlarini faollashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, hisob siyosati, ta'lim muassasasi,

moliyaviy hisobot, ichki nazorat, normativ hujjatlar.

Abstract

This article investigates the current state of accounting systems in vocational education institutions in Uzbekistan, focusing on the practical implementation of accounting policies, the structure of funding sources, and the effectiveness of internal control mechanisms. Using comparative and descriptive analysis methods, the study examines data from three technical colleges to identify disparities in accounting practices, uneven levels of automation, and insufficient application of regulatory frameworks. Based on the findings, the study puts forward evidence-based recommendations to standardize accounting policies, expand the integration of digital accounting systems, and strengthen internal audit functions to improve transparency and financial

management in the vocational education sector:

Keywords: *accounting, accounting policy, vocational education, financial reporting, internal control, regulations.*

Kirish

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida mamlakat taraqqiyoti uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb vazifaga aylandi. Bu borada professional ta'lim muassasalari muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat mehnat bozori uchun tayyor kadrlar yetkazib beradi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'lim sohasiga doir chiqishlarida ta'lim muassasalari faoliyatida samaradorlikni oshirish, mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlash, hisob-kitob tizimini takomillashtirish muhimligini alohida ta'kidlagan¹. Xususan, 2023 yil 28 iyun kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda davlat rahbari ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, mablag'lar harakati ustidan to'liq nazorat o'rnatishni talab qilgan².

Professional ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari — davlat byudjeti, to'lov-kontrakt tushumlari, rivojlantirish jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar — ulardagi moliyaviy

operatsiyalarning murakkab va ko'p tarmoqli ekanini anglatadi. Ushbu mablag'larning manzilli, samarali sarflanishi esa to'g'ridan-to'g'ri buxgalteriya hisobining aniqligi va samaradorligiga bog'liq.

Afsuski, ko'pgina muassasalarda buxgalteriya hisobi hali ham an'anaviy usullarda yuritiladi, hisobotlar qo'lbola tarzda tayyorlanadi va ichki nazorat tizimi yetarli darajada ishlamaydi. Hisob siyosati har bir muassasa tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilsa-da, bu yo'nalishda yagona standart va avtomatlashtirilgan yondashuvning yetishmasligi kuzatilmoqda. Shu boisdan, professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish — nafaqat ichki moliyaviy tartibni mustahkamlash, balki davlat organlariga ishonchli hisobot taqdim etish, korrupsion omillarni kamaytirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro amaliyotda professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) asoslanish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, Tashnazarov va Abdurasulov o'z maqolalarida ta'lim sohasida buxgalteriya va audit tizimini xalqaro darajaga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi³. Mualliflar ta'lim muassasalarida hisob-kitob tizimida

¹ Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Ta'lim sifatini oshirish va moliyaviy tartibga oid chora-tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/6401>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2023). Kasb-hunar ta'limi tizimini isloh qilish masalalari bo'yicha yig'ilish. <https://president.uz/uz/lists/view/6384>

³ Tashnazarov, S., & Abdurasulov, J. (2021). Issues of organization of "Accounting and Audit" to the level of international standards. International Finance and Accounting. <https://www.academia.edu/download/89290452/479904910.pdf>

shaffoflikni ta'minlash, ichki auditni kuchaytirish va elektron nazorat mexanizmlarini joriy etishni muhim deb hisoblaydilar.

Shuningdek, Hajiyeva va boshqalar moliyaviy hisobot standartlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish borasidagi tajribani tahlil qilib, boshqaruv samaradorligini oshirishda hisobotning to'liqligi va vaqtida tayyorlanishini hal qiluvchi omil⁴ deb ko'rsatadilar.

Milliy darajada esa, kasbiy ta'lim muassasalaridagi hisob siyosatini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Sindarov davlat sektoridagi moddiy qiymatliklar hisobi va ularning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuvini tahlil qilib, professional ta'lim muassasalaridagi amaliyot bilan solishtirma tavsiyalar bergan⁵.

Mamajonov ta'lim muassasalarida iqtisodiy va huquqiy asoslar mustahkamlanishi hisobni samarali yuritishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi⁶. Buni Sotvoldiev ham qo'llab-quvvatlab, ta'lim muassasalarida hisob ma'lumotlari asosida iqtisodiy diagnostika tizimini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi⁷.

Buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi o'quv adabiyotlar ham

tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Xususan, Saviskaya tomonidan yozilgan "Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya" asarida hisob ma'lumotlari asosida tahlil o'tkazish usullari, samaradorlik indikatorlari va nazorat mexanizmlari⁸ keng yoritilgan.

Mahalliy mualliflardan Abdullaev asarida esa, O'zbekiston sharoitida ta'lim muassasalarida hisob yuritishdagi huquqiy va amaliy jihatlar, davlat byudjeti, shartnoma tushumlari va jamg'armalar mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil etish⁹ bo'yicha ilmiy-nazariy tavsiyalar berilgan.

Ta'lim muassasalarida hisob siyosati va buxgalteriya faoliyatini tashkil etishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (2023) asosiy huquqiy bazani tashkil etadi. Unda hisob yuritishning asosiy prinsiplari, hisobotlar taqdim etish muddatlari, ichki nazorat va auditning umumiy qoidalari belgilab berilgan. Shu bilan birga, Oliy, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari va metodik ko'rsatmalari muassasa ichki hisob siyosatini shakllantirish va uni amalga oshirishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlar muassasa mustaqilligi sharoitida byudjet mablag'larini maqsadli sarflash, hisobotlarni tayyorlash va nazorat qilish

⁴ Hajiyeva, S., Shamilov, N., & Isgandar, A. (2020). Integration of financial reporting standards into national accounting practices. Virtual Conferences Press. https://www.virtualconferences.press/wp-content/uploads/2020/12/Integratsiya_v_mir_i_svyaz_nauk_Baku_November.pdf

⁵ Sindarov, Sh. E. (2023). Davlat sektorida moddiy qimmatliklar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish masalalari. Moliya, 2023(1), 43–47. https://storage.tfi.uz/Moliya-jurnali/Moliya-2023_1-son.pdf#page=43

⁶ Mamajonov, I. G. (2022). Iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asoslari: tahlil,

mulohaza. Iqtisodiyot va Ta'lim, 5(3), 112–118. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/17_Mamajonov.pdf

⁷ Sotvoldiev, N. J. (2020). Oliy ta'lim muassasasini boshqarish – iqtisodiy diagnostika obyekti sifatida. Iqtisodiyot va Ta'lim, 4(2), 59–65. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Sotvoldiyev_N.pdf

⁸ Savitskaya, G. V. (2020). Анализ хозяйственной деятельности предприятия (13-е изд.). Минск: Новое знание.

⁹ Abdullayev, M. R. (2021). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

yuzasidan huquqiy va metodik asoslarni belgilaydi.

Yuqorida tahlil qilingan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy muhokama ob'ektiga aylangan. Xalqaro tajribada, ayniqsa, hisobotlarni avtomatlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va ichki audit tizimini kuchaytirish borasidagi ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistondagi tadqiqotlarda esa, ta'lim muassasalarida hisob yuritishning huquqiy va tashkiliy jihatlarini ko'proq yoritilgan bo'lib, amaliyotdagi muammolar aniqlanadi, ammo ularning yechimlariga oid tizimli yondashuvlar yetarlicha emas. Mahalliy darsliklar esa nazariy jihatdan boy bo'lsa-da, zamonaviy raqamlashtirish mexanizmlari kam yoritilgan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot — ta'lim muassasalarida hisob siyosatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Bu tadqiqot orqali ilmiy va amaliyotchi jamoatchilikka buxgalteriya hisobini takomillashtirishda aniq yo'nalishlar taklif etilishi maqsad qilingan.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotning metodologik asosini tashkil etgan ob'ektlar sifatida O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan professional ta'lim muassasalari tanlab olindi. Ushbu muassasalarda buxgalteriya hisobini yuritish, hisob siyosatining shakllanishi,

moliyaviy hisobotlar va nazorat tizimining amaliy holati o'rganildi.

Ma'lumot manbalari sifatida moliyaviy hisobotlari, hisob siyosati hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar, tegishli sohaviy metodik ko'rsatmalar va elektron resurslardan foydalanilgan. Solishtirma tahlil, tavsifiy tahlil, qonun va normativ hujjatlar tahlili, jadval va diagramma asosida vizual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida tahlil qilingan uchta texnikumda buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi holatlar, farqlar va muammolar o'rganildi. Tahlilda moliyaviy hisobotlar, hisob siyosati hujjatlari, nazorat tizimi va avtomatlashtirish darajasi e'tibor markazida bo'ldi.

Har bir texnikumda moliyalashtirish manbalari soni bir xil bo'lsa-da, ularning hissasi va tuzilishi turlicha ekanligi kuzatildi. Jumladan, birinchi texnikumda davlat byudjeti hissasi 75 foizni tashkil etib, asosiy xarajatlar — ustozlarning maoshi, ta'mirlash ishlari va laboratoriya jihozlari — shu manbadan qoplangan. Ikkinchi texnikumda kontrakt tushumlari yuqori (35 foiz) bo'lib, ularni asosan o'zining maxsus kurslari va qayta tayyorlash guruhlarini orqali qoplab kelmoqda. Uchinchi texnikumda esa, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari deyarli shakllantirilmagan. Ushbu texnikumda 2022 yilda yoritish uskunalarini sotib olish uchun mablag' yetishmagani sababli, o'quv xonalarida sharoit yaxshi emas. Bu muammo mablag'larni manzilli sarflashda yetarli nazorat yo'qligini ko'rsatdi.

Har bir muassasada hisob siyosati hujjatlari formal holatda mavjud bo'lib, ularning tuzilishi, mazmuni va amaliy qo'llanilishi juda turlicha. Birinchi texnikumda amortizatsiya qoidalarini aniq belgilangan, hisob jadvallari raqamlangan. Ikkinchi texnikumda esa, hisob siyosati hujjatida qarzdorlik yoki debitorlar hisobini yuritish bo'yicha batafsil reglament yo'q. Uchinchi texnikumda hisob siyosati ko'chirma-usulda tuzilgan, "oldingi direktor hujjatini qaytadan tasdiqladik" degan fikrlar uchradi.

Ichki nazorat tizimi barcha muassasalarda rasman mavjud, ammo amaliy faoliyat turlicha. Birinchi texnikumda har chorakda buxgalteriya bo'limi hujjatlar to'liqligini tekshiradi. Ikkinchi texnikumda hisobot faqat moliya bo'limiga beriladi, tahlil qilinmaydi. Uchinchi texnikumda esa, xarajat limiti oshgan hollarda rahbariyat hisobni ayniqsa tekshirmagan va xarajalar ichki tasdiqsiz amalga oshirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, texnikumlarda hisob yuritishdagi turfa amaliy yondashuvlar mablag'larni samarali boshqarishga to'sqinlik qilmoqda. Aniq belgilangan hisob siyosati, avtomatlashtirilgan tizimlar va faol ichki nazorat mavjud muassasalarda hisob shaffof va tezkor yuritilmoqda. Boshqalarda esa faqat hisobot topshirish uchun hisob yuritish holati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shundan dalolat berdiki, professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya

hisobini yuritish amaliyotida tizimli yondashuv, standartlashgan hisob siyosati va yuqori darajada avtomatlashtirilgan moliyaviy boshqaruv modellari hali yetarli darajada shakllanmagan. Hisob tizimi ko'p hollarda institutsional darajadagi farqlar, malaka yetishmasligi va texnologik quvvat kamligi bilan cheklanmoqda.

Muassasalarda hisob siyosati mavjud bo'lishiga qaramay, uning mazmunidagi zaiflik va shablonlik o'zaro taqqoslashda yaqqol ko'zga tashlandi. Ayrim muassasalarda amortizatsiya qoidalarini, xarajatlarning detallashgan klassifikatsiyasi va debitor qarzlarni boshqarish bo'yicha aniq tartiblar mavjud emas. Bu holat hisobotlar ishonchliligini pasaytirar ekan, shu bilan birga, moliyaviy axborotni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarasiz qiladi.

Xalqaro amaliyotda hisob siyosati faqat buxgalteriya hujjati emas, balki tashkilotning moliyaviy boshqaruv intizomi sifatida qaraladi¹⁰. O'zbekistonda esa, u ko'pincha qonungu muvofiqlikni ta'minlash uchun rasman qabul qilinayotgan hujjatdir.

Hisob va hisobot tizimida ichki nazorat mexanizmi, ayniqsa, davlat mablag'lari sarflanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo tadqiqot davomida ayrim texnikumlarda ichki audit faoliyati faqat nomiga borligi, hisobotlar tekshirilmasligi, nazorat hujjatlari tayyorlanmasligi kuzatildi.

Ushbu holat ma'lumotning ishonchliligi, mablag'larni manzilli

¹⁰ Tashnazarov, S., & Abdurasulov, J. (2021). Issues of organization of "Accounting and Audit" to the level of international standards. International Finance

and Accounting.
<https://www.academia.edu/download/89290452/479904910.pdf>

sarflash va korrupsiya xavfini kamaytirishdagi asosiy vosita — ichki nazorat tizimining mavjudligini, lekin faoliyatsizligini ko'rsatadi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va sohaviy normativ hujjatlar muassasalarning hisob siyosati va moliyaviy faoliyatini tartibga soladi. Lekin tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, ushbu hujjatlar ko'pincha to'liq o'zlashtirilmagan, amaliy faoliyatda yetarli darajada tatbiq etilmayapti. Hatto, hisobchilar va rahbariyatning ayrimlari hisob siyosati mazmunini yaxshi bilmasligi, unga amal qilish mexanizmi mavjud emasligini tan olishgan. Bu holat ma'lumotni faqat yuqori tashkilot talabiga binoan shakllantirish amaliyoti saqlanib qolayotganini, ya'ni hisob — boshqaruv vositasi sifatida emas, rasmiyatchilik sifatida faoliyat ko'rsatayotganini anglatadi.

Tadqiqot ko'rsatdiki, professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishda hozirda asosiy muammolar sifatida hisob siyosatining formal va individual shaklda yuritilishi hamda nazorat va hisob tizimining faol emasligini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va milliy islohotlar tendensiyasidan kelib chiqib, ushbu muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritish amaliyoti hozirgi kunda bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Xususan, hisob siyosatida standartlashtirishning yetishmasligi, avtomatlashtirish darajasining pastligi,

ichki nazoratning faol emasligi va normativ hujjatlar bilan ishlashning formalligi sohadagi samaradorlikni cheklab kelmoqda.

Tahlil qilingan texnikumlar misolida aniqlangan holatlar ushbu muammolarning amaliyotda qanday aks etayotganini yaqqol ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv qobiliyati, shaffoflik darajasi va hisobot sifatini pasayishiga olib kelmoqda.

Hisob siyosati shaklan mavjud, ammo mazmunan chuqur ishlanmagan. Tasdiqlangan hujjatlar ko'p hollarda amaliy qiymatga ega emas. Ichki nazorat tizimi rasman mavjud, lekin samarasiz, hisobotlar tahlil qilinmasdan yuqori tashkilotga taqdim etilayotgan holatlar ko'p. Normativ bazani amaliy foydalanish darajasi past, hisobchilar va rahbariyatning huquqiy hujjatlardan xabardorligi yetarli emas.

Hisob siyosati har bir tashkilotda, jumladan, professional ta'lim muassasasida buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobot tayyorlash va ichki nazoratni tashkil etishda asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu hujjat ko'p hollarda: shablon asosida tayyorlangan, amaliy qiymatga ega emas, xodimlar tomonidan chuqur tushunilmaydi, real moliyaviy operatsiyalar bilan muvofiqlashmagan.

Professional ta'lim muassasalari turli moliyalashtirish manbalariga ega bo'lsa-da, hisob siyosatida ushbu manbalarni qanday aks ettirish, ularning harakatini qanday hisobga olish va nazorat qilish bo'yicha aniq yondashuv yo'q. Ayrim muassasalarda hisob

siyosatida amortizatsiya me'yorlari, xaridlar tartibi, tugatiladigan aktivlar hisobini yuritish, qabul qilish va topshirish yo'l-yo'riqlari umuman ko'rsatilmagan.

Bundan tashqari, hisob siyosati ko'pincha buxgalter tomonidan tayyorlanib, rahbariyat tomonidan chuqur tahlil qilinmasdan tasdiqlanmoqda. Bu esa, uning ta'lim muassasasi ichki boshqaruvida real foydalanishini cheklaydi. Davlat tomonidan professional ta'lim muassasalari uchun maxsus hisob siyosati shabloni ishlab chiqilishi va tavsiya etilishi zarur. Ushbu namuna yillik xarajat tuzilmasi, mablag' manbalari, aktivlar aylanmasi, ichki nazorat mexanizmlari va hisobot shakllarini qamrab olishi kerak.

Har bir muassasa real sharoitidan kelib chiqib, hisob siyosatini moslashtirishi uchun metodik qo'llanma va tavsiyalar to'plami bo'lishi shart. Bu qo'llanmalarda har bir modda izoh bilan berilgan, amaliy misollar keltirilgan, raqamli formatda shablonlar joriy etilgan bo'lishi kerak.

Har yili moliyaviy faoliyat yakunlariga asoslanib, hisob siyosati respublika bo'yicha yagona mezonlar asosida qayta ko'rib chiqilishi va tahlil qilinishi zarur. Buning uchun har bir

muassasa buxgalteriya bo'limiga ega bo'lishi kerak. Hisob siyosati tasdiqlangandan so'ng, barcha mas'ullar ishtirokida o'quv-seminar o'tkazilishi lozim. Hisobchi va rahbariyatning ushbu hujjatga bir xil yondashishi — uning real faoliyatda qo'llanilishini ta'minlaydi. Bu uning muntazam yangilanishi, muhokama qilinishi va nazorat qilinishini yengillashtiradi.

Hisob siyosati faqat "qonun talabini bajarish uchun" emas, balki boshqaruv samaradorligini oshirish uchun amaliy vosita sifatida ko'rilishi kerak. Agar har bir texnikum o'z hisob siyosatini o'z mablag'larining tuzilishi, kadr salohiyati, ichki xavflar va nazorat imkoniyatlari, asosida individuatsiya qilsa, bu muassasaning moliyaviy shaffofligini va hisobot sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish — bu faqat hisob yuritishni emas, balki muassasaning moliyaviy strategik boshqaruvini qayta qurish demakdir. Agar, hisob siyosati amaliy va mustahkam asosga ega bo'lsa, avtomatlashtirish to'liq joriy qilinsa, va nazorat samarali bo'lsa — muassasalarda davlat mablag'lari maqsadli, manzilli va shaffof tarzda sarflanishi ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Ta'lim sifatini oshirish va moliyaviy tartibga oid chora-tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/6401>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2023). Kasb-hunar ta'limi tizimini isloh qilish masalalari bo'yicha yig'ilish. <https://president.uz/uz/lists/view/6384>



3. Tashnazarov, S., & Abdurasulov, J. (2021). Issues of organization of "Accounting and Audit" to the level of international standards. *International Finance and Accounting*. <https://www.academia.edu/download/89290452/479904910.pdf>
4. Hajiyeva, S., Shamilov, N., & Isgandar, A. (2020). Integration of financial reporting standards into national accounting practices. *Virtual Conferences Press*. https://www.virtualconferences.press/wp-content/uploads/2020/12/Integratsiya_v_mir_i_svyaz_nauk_Baku_November.pdf
5. Sindarov, Sh. E. (2023). Davlat sektorida moddiy qimmatliklar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish masalalari. *Moliya*, 2023(1), 43–47. https://storage.tfi.uz/Moliya-jurnali/Moliya-2023_1-son.pdf#page=43
6. Mamajonov, I. G. (2022). Iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asoslari: tahlil, mulohaza. *Iqtisodiyot va Ta'lim*, 5(3), 112–118. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/17_Mamajonov.pdf
7. Sotvoldiev, N. J. (2020). Oliy ta'lim muassasasini boshqarish – iqtisodiy diagnostika obyekti sifatida. *Iqtisodiyot va Ta'lim*, 4(2), 59–65. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Sotvoldiyev_N.pdf
8. Savitskaya, G. V. (2020). Анализ хозяйственной деятельности предприятия (13-е изд.). Минск: Новое знание.
9. Abdullayev, M. R. (2021). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.